



Hamidbek YUSUPOV,
Urganch davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD
E-mail: hamidyusupov005@gmail.com

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, DSc O.Radjabov taqrizi asosida

THE ACTIVITIES OF MADRAKHM RAKHMONOV, THE FIRST KHOREZM LEADER WHO WAS INVITED TO MEET WITH STALIN

Annotation

This article provides important information about the activities of Madrahim Rakhmonov, who served as the head of our region for many years, and his contribution to the socio-economic development of our region. During the time when Madrahim Rakhmonov headed the region, the railway was put into operation. The Khorezm region was connected to Takhiatash electricity, the Urgench-Khiva highway was built, the Urgench airport was reconstructed, and literature and art developed in Khorezm. At that time, the Khorezm theater was recognized as one of the leading theaters in the republic.

Keywords: Madrahim Rahmonov, Higher party school, Khorezm radio, Stalin, secretary, MTS, komsomol, "Sun of the revolution", inspector, editor, boarding school, technical school, centner, Madrahim Sheroziy, Usmon Yusupov, RTS, "Selkhoztekhnika".

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МАДРАХИМА РАХМОНОВА, ПЕРВОГО ХОРЕЗМСКОГО ЛИДЕРА, ПРИГЛАШЕННОГО НА ВСТРЕЧУ СО СТАЛИНЫМ

Аннотация

В этой статье представлена важная информация о деятельности Мадрахима Рахмонова, долгие годы возглавлявшего нашу область, и его вкладе в социально-экономическое развитие региона. В период руководства Мадрахимом Рахмоновым была введена в эксплуатацию железная дорога, Хорезмской области получила электроснабжение Тахиаташской области, была построена автодорога Ургенч-Хива, реконструирован аэропорт Ургенча, развивались литература и искусство Хорезма. В то время Хорезмский театр был признан одним из ведущих театров республики.

Ключевые слова: Мадрахим Рахмонов, Высшая партийная школа, Хорезмской радио, Сталин, секретарь, МТС, комсомол, "Солнце революции", инспектор, редактор, интернат, техникум, центнер, Мадрахим Шерозий, Усмон Юсупов, РТС, "Сельхозтехника".

STALIN HUZURIGA CHAQIRILIB MULOQOT QILGAN BIRINCHI XORAZMLIK RAHBAR MADRAHIM RAHMONOV FAOLIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ko'p yillar davomida viloyatimizga rahbar bo'lib ishlagan Madrahim Rahmonov faoliyati va uning viloyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qo'shgan hissasi haqida muhim ma'lumotlar beriladi. Madrahim Rahmonov viloyatga rahbarlik qilgan davrda temiryo'l foydalanishga topshirilgan. Xorazm viloyati Taxiataosh elektr energiyasiga ulandi, Urganch-Xiva avtoyo'li qurildi, Urganch aeroporti rekonstruksiya etildi, shuningdek, Xorazmda adabiyot va san'at rivojlandi. O'sha vaqtlari Xorazm teatri ilg'or teatrlardan biri sifatida respublikaga tanildi.

Kalit so'zlar: Madrahim Rahmonov, Oliy partiya maktabi, Xorazm radiosi, Stalin, kotib, MTS, komsomol, "Inqilob quyoshi", inspektor, redaktor, internat, texnikum, sentner, Madrahim Sheroziy, Usmon Yusupov, RTS, "Selxoztexnika".

Kirish. Stalin huzuriga chaqirilgan birinchi xorazmlik rahbar, Madrahim Rahmonov, XX asr boshlarida O'zbekistonning Xorazm viloyatida o'zining faoliyati bilan tarixda muhim o'rin egallagan siyosiy arboblardan biridir. Uning hayoti va faoliyati o'z davrining ijtimoiy-siyosiy muhitida chuqur iz qoldirdi. M. Rahmonovning Stalin huzuriga chaqirilishi, uning faolligini sovet hokimiyatining markazlashgan tizimi bilan to'qnashuvi sifatida talqin qilish mumkin. Bu voqea faqat Xorazm uchun emas, balki O'zbekistonning boshqa viloyatlaridagi siyosiy muhitni o'rganishda ham muhim ahamiyatga ega. Madrahim Rahmonovning faoliyati, Xorazmning ijtimoiy-siyosiy tuzilmasini shakllantirishdagi roli va sovet hokimiyati bilan olib borgan muloqotlari O'zbekiston tarixida alohida o'rin tutadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu mavzuga oid maqolani yozishda bir qancha adabiyot va vaqtli matbuot nashridan foydalanildi. Jumladan, adabiyotlardan, Madyor Xudoyberganovning "Sinovlarda kechgan umr" esdaliklari, "Xorazm oblasti", "Xorazm paxtakorlarining

g'olibona odimi" kitoblari, mustaqillikdan keyingi Xorazm viloyatining birinchi hokimi Marks Jumaniyozovning "Esimda qolgan onlar" risolasi, O'zbekiston SSR tarixining to'rtinchi tomi, Sharqiya Eshjonova va So'najon Hakimovning "Xorazm farzandlari", Yangiboy Qo'chqorovning "Xush kelibsiz, Xorazmga" va vaqtli matbuot nashri "Horazm haqiqati" gazetasining 1947-yil 29-yanvarda chiqqan 21-sonidan foydalanildi. Ushbu adabiyotlar va vaqtli matbuot nashrida mavzuga oid barcha ma'lumotlar yetarlicha tahlil etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ilmiy maqola qiyosiy tahlil, tarixiylik, ilmiylik, uzviylik kabi metodlarga tayanilgan holda yozilgan.

Tahlil va natijalar. Ko'p yillar davomida viloyatimizda rahbar bo'lib ishlagan Madrahim Rahmonov 1912-yilda Urganch shahrida tug'ilgan. Madrahim Rahmonov 1923-yilda Urganch shahridagi internatga berilgan. Bu internatda 1927-yilgacha tarbiyalanib, o'sha yili komsomol qatoriga qabul qilinadi.

1927-yilda Xiva shahridagi paxtachilik texnikumiga kirib, paxtachilik bilimini o'rganishga qunt bilan beriladi va 1932-yilda texnikumni muvaffaqiyatli bitirib, o'sha yili Urganch tumanidagi MTSning Qoromon qishloq sovetidagi uchastka agronomi bo'lib ishlaydi. Yosh agronom kolxozchilarga paxtachilik agrotexnikasini chidam bilan o'rgatadi. U kolxozchilarga dehqonlarning tajribasi bilan agronomiya bilimini birga qo'shib olib borish bilangina paxta va boshqa qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori hosil olish mumkinligini tushuntiradi [1]. Davrning ilg'or yoshlari safida Buxoro pedagogika institutining Urganch bo'limida o'qib til va adabiyot o'qituvchisi sifatida Hazorasp tumani maktablarida o'qituvchilik qilgan.

Madrahim Rahmonov shundan keyin "Inqilob quyoshi" (hozirgi "Xorazm haqiqati") gazetasining qishloq xo'jalik bo'lim mudiri va so'ngra ana shu gazetaning mas'ul kotibi bo'lib 1937-yilga qadar ishlaydi.

Madrahim Rahmonov 1937-yilda Xorazm viloyati maorif bo'limida inspektor, adabiyot va san'atga bo'lgan ixlosi tufayli u avval Xorazm radiosida suxandon bo'lib ishlaydi. 1939-yilda VKP (b) a'zoligiga nomzod bo'lib o'tadi. Shu yili u Urganch shahar Sovetining rais o'rinbosari qilib saylandi. Madrahim Rahmonov 1941-yilda Urganch shahar Sovetining deputati qilib va biroz o'tgach shahar Sovetining raisi qilib saylandi [2].

1943-yilda Madrahim Rahmonov Xorazm viloyat ijroiya komitetining rais muovini qilib tayinlanadi va 1944-yilda viloyat ijrokomining raisi qilib saylanadi.

1950-yildan Oliy partiya maktabida Moskvada tahsil oladi. Urushdan keyingi yillarda mahalliy rahbar kadrlar yetishmovchiligi bois M. Rahmonov o'qishdan chaqirib olingan va viloyat partiya qo'mitasining 1-kotibi etib tayinlangan.

U I. Stalin huzuriga chaqirilib muloqot qilgan birinchi xorazmlik rahbarlardan bo'lgan. M. Rahmonov "Chorjo'y-Urganch-Qo'ng'iroq temir yo'li" qurilishi shtabi boshlig'i sifatida zo'r g'ayrat ko'rsatib ishlagan. U rahbarlik qilgan davrda temir yo'l foydalanishga topshirilgan. Xorazm viloyati Taxiatoch elektr energiyasiga ulandi, Urganch-Xiva avtoyo'li qurildi, Urganch aeroporti rekonstruksiya etildi, ko'plab maktab binolari qurildi, bog' va xiyobonlar obod etildi [3].

Madrahim Rahmonovning viloyatga rahbarlik qilgan davrida qishloq xo'jaligida ham katta yutuqlarga erishildi. Viloyatda so'nggi 3 yil ichida paxta hosili gektaridan o'rta hisobda salkam 5 sentner oshdi. Davlatga rejadan tashqari 47500 pud g'alla va sholi topshirildi. Pilla, qorako'l teri topshirish rejalari oshirib bajarildi. Xorazm beda urug'i yetkazib berishda katta yutuqlarga erishdi. So'nggi yillarda yo'qolib ketgan beda maydonlari qaytadan tiklandi. 8000 gektarga yaqin beda maydoni 20000 gektardan oshirildi. Bu ishlarning hammasida Madrahim Rahmonov faol ishtirok etdi.

Madrahim Rahmonov "Mehnat Qizil Bayroq" ordeni va ikki marta "Hurmat belgisi" ordeni bilan mukofotlandi [4].

Madrahim Rahmonov 1950-yilda Moskvadan, partiya maktabidan oldirilib, I. Iskandarovning o'rniga saylanadi. Madrahim Rahmonov 1938-yildan keyin mahalliy kadrlardan qo'yilgan viloyat partiya komitetining birinchi kotibi edi. U kishi oq-qorani tanigan, kadrlar, mahalliy aholining fe'l-atvorini yaxshi biladigan odam edi.

Madrahim Rahmonov 1960-yilda ishdan bo'shatilib, Urganch RTSiga rahbar bo'ladi. U kishi 7 yil davomida RTS, keyin "Selxotexnika" tizimida ishladi. Madrahim Rahmonov birinchi rahbar bo'lib ishlagan davrlarda viloyatda ancha o'zgarishlar bo'ldi. Bu davrda Xorazmga temiryo'l olib borildi. Albatta, temiryo'l qurish ishi respublika tashkilotining rahbarligida hal qilingan va amalga oshirilgan. Bunda Usmon Yusupovning xizmati katta, deb aytib yurishadi. Biroq bu yo'l qurilishiga xalqni jalb qilishda, hasharchilarga ishlash, yashash, dam olish uchun sharoit yaratishda Madrahim

Rahmonov va uning atrofidagi rahbarlarning xizmati katta bo'lgan [5].

Xorazm iqtisodiyoti va madaniyatini rivojlantirishda 1953-yilda ishga tushirilgan Chorjo'y-Qo'ng'iroq temir yo'li qurilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. 70 mingdan ortiq kishi 25 kun mobaynida 400 kmga cho'zilib ketgan Chorjo'ydan Urganchga qadar bo'lgan barcha trassada bo'lajak yo'lining tuproq ko'tarmasini qurdilar.

Quruvchi bo'lib olgan minglab kolxozchilar haqiqiy qahramonlik mo'jizalarini ko'rsatdilar. Ular orasida Shovot tumanidan Yusup Matyoqubov, Urganch tumanidan Soliya Shomurotova, Yangiariq tumanidan Jumanazar Qalandarov va boshqa minglab qahramonlar bor edi. Temir yo'l foydalanishga topshirilgach, uch yil ichida 150 ming fuqaro va 7 mln so'mlikdan ortiq turli xil molar tashildi [6].

Madrahim Rahmonov davrida Xorazmda adabiyot, san'at rivojlangan. O'zi ham she'r yozib turardi, she'rlari ashula qilib aytilardi. U san'atni juda sevgan odam edi. 50-yillardan so'ng Xorazmda adabiy harakat yanada kuchaydi va yil sayin yangi yosh kuchlar bilan to'lisa bordi. Jumaniyoz Sharipov, Rahmat Majidiy, Ayyomiy, Egam Rahim, Do'stchon Matchon, Rahim Bekniyoz, Fozil Zohidov, Erkin Samandarov, Ro'zmat Otayev, Erkin Madrahimov, Ne'mat Solayev, Bibisora Otayeva, Matnazar Abdulkhakov kabi ijodkorlar sanog'ini yana davom ettirish mumkin [7].

O'sha vaqtlari Xorazm teatri ilg'or teatrlardan biri sifatida tanildi. Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, Nazira Yusupova, Sultonposhsha Rahimova respublikada dong taratdi. Madrahim Rahmonov yozuvchilarga, ijod ahliga, san'atkorlarga rahnamolik qildi.

1954-yilda shoir Avaz O'tar tavalludining 70 yillik yubileyi keng nishonlandi [8]. 1957-yilda Urganchda Madrahim Sheroziyning 60 yillik to'yi o'tkazildi. 1959-yilning yozida Xorazm viloyati teatrlarining artistlari Turkmanistondagi sobiq Chorjo'y viloyatining shahar va qishloqlariga gastrolda bordi [9].

U xalq xo'jaligi, ayniqsa, qishloq xo'jaligiga rahbarlik qilishda kadrlarga alohida e'tibor bergan. O'sha davrda yuqori bo'g'in kadrlarini tanlashda to'g'ri yo'l tutilgan. Madrahim Rahmonov tanlagan kadrlardan SSSR Oliy Sovetining deputati, Sotsialistik Mehnat Qahramoni Madamin Matkarimov, viloyat partiya komitetiga rahbarlik qilib obro'-e'tiborga sazovor bo'lgan Ro'zmat G'oyibov, Madyor Xudoyberganovlarni ko'pchilik biladi va hurmat qiladi. Polvon Nazarov, Xudargan Rahimovlar chorak asr tuman rahbari bo'ldilar [10].

Madrahim Rahmonov viloyatga rahbarlik qilgan davrda qishloq xo'jaligi, ayniqsa, paxta va pilla yetishtirish sohasida ham katta yutuqlarga erishildi. Paxta yetishtirish bo'yicha Xorazm 1950-yilda ham O'zbekistonning qoloq viloyati edi. [11].

1956-yildan boshlab viloyat har yili davlatga paxta sotish rejasini va sotsialistik majburiyatini bajara boshladi. Paxtachilik qishloq xo'jaligining yetakchi, asosiy tarmog'i bo'lib qoldi. Endilikda barcha ekin maydonining 78 foiziga paxta ekilardi. Agar qishloq xo'jaligining 1968-yildagi barcha mahsuloti qiymati 100 % deb qabul qilinsa, uning 89 foizi paxtaga, 2,5 foizi boshqa dehqonchilik mahsulotlariga va 8,5 foizi chorvachilikka to'g'ri keladi.

Paxtachilik tarmog'ining intensiv rivojlanishi, dastavval, 1956-yildan boshlab hosildorlik to'xtovsiz oshib borganligi bilan bog'liqdir. Hosildorlik 1956-yili 20,5 sentnerni tashkil etgan bo'lsa, 1960-yilda har gektar sug'oriladigan yerdan 27 sentnerdan, 1963-yili 31 sentnerdan, 1966-yili 35,4 sentnerdan, 1968-yili 37 sentnerdan paxta olindi. Boshqacha qilib aytganda, keyingi 12 yil ichida, ya'ni Xorazm qoloqlikka barham berib, ilg'or viloyat bo'lib qolgach, paxta hosildorligi 8 baravar oshdi, yalpi hosil esa ikki baravar ko'paydi [12].

1959-yil Xorazm viloyati paxta tayyorlash rejasini 109 foizga bajardi [13]. Viloyatda pillachilik tarmog'i ham tez rivojlandi. 1950-yilda pilla hosildorligini oshirishda Toshkent viloyati mehnatkashlari eng yuqori ko'rsatkichga erishdi, har bir quti qurt urug'idan 54,1 kg pilla oldi. Namangan viloyatida har quti qurt urug'idan 51,8 kg pilla olindi, Xorazmda esa har bir quti qurt urug'idan 51 kg pilla olindi [14]. 1960-yil bahorgi ekish mavsumi arafasida M. Rahmonov vazifasidan olindi. Unga shaxsiy turar joy solding degan ayb qo'yildi [15].

Xulosa. Madrahim Rahmonovning Stalin huzuriga chaqirilishi va uning faoliyati o'zining murakkab siyosiy va

ijtimoiy kontekstida qiziqarli o'rganish obyektiga aylandi. Uning faolligi, Xorazmda mustahkam siyosiy tuzilma yaratishga, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan ko'plab harakatlarni o'z ichiga olgan. Stalin rejimi bilan olib borgan muloqotlari, shuningdek, uning ijtimoiy va siyosiy kurashlari, Xorazm va O'zbekistonning tarixida katta ahamiyatga ega. Madrahim Rahmonovning tarixiy roli, uning siyosiy qarorlari va ularning o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitdagi ta'siri, zamonaviy tarixshunoslikda diqqatga sazovor mavzu bo'lib qoladi.

ADABIYOTLAR

1. "Xorazm haqiqati". 1947-yil 29-yanvar №21. – B. 2.
2. "Xorazm haqiqati". 1947-yil 29-yanvar №21. – B. 2.
3. Eshjonova Sh., Hakimova S. Xorazm farzandlari. – Toshkent: "Shafolat Nur Fayz", 2024. – B. 164.
4. "Xorazm haqiqati". 1947-yil 29-yanvar №21. – B. 2.
5. Jumaniyozov M. Esimda qolgan onlar. – Toshkent: "Musiq", 2008. – B. 74-78.
6. Xudoyberganov M. Xorazm oblasti. – Toshkent: "O'zbekiston", 1975. – B. 75.
7. Xudoyberganov M. Sinovlarda kechgan umr. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1997. – B. 116.
8. Qo'chqorov Y. Xush kelibsiz, Xorazmga. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – B. 63.
9. O'zbekiston SSR tarixi. To'rtinchi tom. – Toshkent: Fan, 1971. – B. 413.
10. Jumaniyozov M. Esimda qolgan onlar. – Toshkent: "Musiq", 2008. – B. 74-78.
11. Xudoyberganov M. Xorazm oblasti. – Toshkent: "O'zbekiston", 1975. – B. 75.
12. Xudoyberganov M. Xorazm paxtakorlarining g'olibona odimi. – Toshkent. "O'zbekiston", 1970. – B. 19.
13. O'zbekiston SSR tarixi. To'rtinchi tom. – Toshkent: Fan, 1971. – B. 287.
14. O'zbekiston SSR tarixi. To'rtinchi tom. – Toshkent: Fan, 1971. – B. 201.
15. Xudoyberganov M. Sinovlarda kechgan umr. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1997. – B. 52.